

HUQUQ IJODKORLIGI –HUQUQ YARATISHNING MURAKKAB JARAYONI

Qosimov Xamidullo Abduqaxxor o‘g‘li
qosimovxamidullo856@gmail.com

Xakimjonov Ahror Abduhamid o‘g‘li
ahrorhakimjonov60@gmail.com

Raimbayev Shodlik Maqsudbek o‘g‘li
shodlikraimbayev@gmail.com

Namangan Davlat universiteti Yuridik fakulteti Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi MIG‘-AU-21 guruh talabalari.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada davlatda huquq ijodkorligini yaratishda xalqning bevosita va bilvosita tutgan ahamiyati. Huquq ijodkorligining turlari, funksiyalari va prinsiplari haqida batafsil yoritilgan. Shuningdek, demokratik va huquqiy davlatda referendum o‘tkazishning muhim ahamiyati va shartlari haqidagi muhim ma’lumotlar bilan boyitilgan.

Kalit so‘zlari: Huquq ijodkorligi, referendum, demokratiya, davlat hokimiyati boshqaruvi, xalqning bevosita huquq ijodkorligi.

ABSTRACT

In this article, the direct and indirect importance of the people in the creation of creativity in the state. The types, functions and principles of legal creativity are described in detail. It is also enriched with important information about the importance and conditions of holding a referendum in a democratic and legal state.

Keywords: Law creation, referendum, democracy, state power management, people’s direct law creation.

Albatta, huquq ijodkorligi haqida gap ketganda ushbu faoliyat davlat funksiyalarini amalga oshirishning huquqiy shakllaridan biri ekanligini nazarda tutish lozim. Chunki jamiyatga davlat rahbarligi ko‘rinishlaridan biri bo‘lgan huquq ijodkorligi yoki qonun yaratuvchilik ishi davlat faoliyatining muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Davlatning muayyan doiradagi maqsadi, vazifasi, davlat hokimiyatini amalga oshirish va tashkil etish shakllarida huquq ijodkorligi davlat tomonidan amalga

oshiriladi. O‘zi huquq ijodkorligi nima? degan savolga javob beradigan bolsak, huquq ijodkorligi-bu, vakolatli davlat organlarining normativ-huquqiy hujjatlarni yaratish, ularga o‘zgartirish kiritish yoki ularni bekor qilishga qaratilgan faoliyati.

Qonunchiligimizda huquq ijodkorligining bir necha turlari mavjudligi ekanligi yuridik manbalarda ko‘rsatilib o‘tilgan:

- bevosita huquq ijodkorligi (umumxalq referendumini);

- davlat organlarining huquq ijodkorligi (Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar va boshqalar);

- alohida mansabdor shaxslarning huquq ijodkorligi (prezident, vazirlar, hokimlar va boshqalar);

- mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquq ijodkorligi- davlat organlarining huquq ijodkorligi (Oliy Majlis,

- Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar va boshqalar);

- alohida mansabdor shaxslarning huquq ijodkorligi (prezident, vazirlar, hokimlar va boshqalar);

- mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquq ijodkorligi. Huquq ijodkorligining-xalqning bevosita huquq ijodkorligi turiga to‘xtaladigan bo‘lsak, yaqin kunlarda sodir bo‘lgan yurtimiz siyosiy hayotida muhim siyosiy jarayon hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahrirdagi qabul qilingan qonun loyihasiga ovoz berish jarayoni umumxalq referendumini huquq ijodkorligining oliy ko‘rinishi namunasi qilib ko‘rsatishimiz mumkin. Referendum huquqni ijro etishning, xalqning o‘z irodasini bevosita bayon etishining eng muhim shakllaridan biri hisoblanadi. Men mutolaa qilgan adabiyotlarimdan va hayotim davomida muloqot qilgan yuridik shaxslar bilan suhbatlarimdan shuni o‘zimga xulosa qildimki, mening shaxsiy fikrimga ko‘ra, huquq ijodkorligi yo‘nalish va turlarining ichida eng samarali va maqbul turi bu – xalqning bevosita huquq ijodkorligi yo‘nalishi deb bilaman. Mening bunday xulosaga kelishimga sabab yangi qonun loyihasining ijodkorligi referendum doirasida xalqning fikri va taklifi bevosita o‘rganib chiqiladi va talabga javob beradigan takliflar yangi qonun loyihasining muhokamasiga qo‘yiladi. Jahon tajribasida ham bu huquqiy normalar yaratishning o‘ta nufuzli va oliy turi hisoblanib, referendumning natijalari biron-bir davlat hokimiyati organlarining tasdiqlashiga muhtoj bo‘lmasdan, balki xalqning fikridan kelib chiqilgan holda tasdiqlanadi. Shuningdek, referendum orqali qabul qilingan qonun loyihasi oliy yuridik kuchga ega ekanligi va referendum orqali qabul qilingan qonun faqat referendum orqali o‘zgartirilishi va bekor qilinishi belgilab qo‘yilgan. Ushbu mazmundagi jumla O‘zbekiston Respublikasi “Referendum to‘g‘risida”gi qonunining 1-moddasida keltirib o‘tilgan. Huquq ijodkorligining muhim predmeti, xalq xohish-irodasini aks ettirgan umummajburiy xulq-atvor qoidalarini yaratish hisoblanadi. O‘z navbatida,

ushbu faoliyat davlat va jamiyat qurilishining konstitutsiyaviy asoslariga tayanib, ma'lum bir prinsiplarga rioya qilgan holda amalga oshirilishi zarur. Ular qatorida qonuniylik, demokratizm, oshkoralik va tezkorlik kabilarni ko'rsatib o'tish mumkin. Davlat organlarining huquq ijodkorligi turi nafaqat yurtimiz siyosatida balki, jahon siyosatida ham eng keng tarqalgan turi hisoblanadi. Davlat organlarining vazifasi, vakolatlari va faoliyat yo'nalishlari qonun doirasida belgilab qo'yiladi. Ushbu yuridik vakolatlari doirasida har bir davlat organi normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish vakolatiga ega bo'ladi. Bizning davlat boshqaruvi tizimi bir-birini taqozo etgan holda, bir-biriga tizimli ravishda bo'ysunishni uzviy holda amalga oshiradi. "Eng qattiq san'at – bu boshqarish san'ati"¹⁵ Buning yaqqol dalili va isboti sifatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida keltirilgan qonunlarning 84-moddasida Oliy Majlis qonun qabul qiladi; 94-moddasida Prezident farmon, qaror va farmoyish chiqaradi; 15 va 16-moddalar esa qonun ustuvorligi prinsipini mustahkamlaydi. Bu moddalar mazmunida normativ–huquqiy hujjatlar o'rtasidagi o'zaro bo'ysunish va ustuvorlik munosabatlari belgilab qo'yilgan. Huquq ijodkorligining prinsiplari mavjud: xalqchilik, oshkoralik, demokratlik, qonuniylik. Bugungi kun jahon siyosatidan kelib chiqqan holda, demokratik davlat qonun ijodkorligi, huquq yaratish faoliyatida o'z xalqi bilan mustahkam bog'liq va doimiy aloqada bo'lishni talab etadi. Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbayi ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, davlat va uning organlari huquq yaratish chog'ida xalqning manfaatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda qabul qilishi talab etiladi. "Demokratiya atamasining qanday sharhlanishi emas, balki uning qanchalik realligi, haqiqiyliги, yashashga qobilligi muhimdir"¹⁶ – deya ta'kidlangan. Xalqning bunday ijodkorlikda ishtirok etishi bevosita va bilvosita demokratiyaning asosiy tamoyili hisoblanadi. "Huquq ijodkorligi prinsipi qonunchilik hujjatlarini yaratishda xalqning, xalq vakillarining (deputatlar va senatorlarning), jamoat birlashmalari, nodavlat tashkilotlar, siyosiy partiyalarning, fuqarolarning huquqiy siyosatni shakllantirish va qonunchilikni takomillashtirish keng ishtiroki orqali namoyon bo'ladi"¹⁷. Lekin bir narsaga ahamiyat beradigan bo'lsak, huquq ijodkorligi jarayoni (qonun yaratish) o'ta ma'suliyatli, serqirra va murakkab jarayon hisoblanadi. Chunki bu qonun loyihasi bir kunga emas, bir haftaga emas balki uzoq yillar davomida bu qonun amal qiladi va xalqning, davlatning manfaatlariga xizmat qiladi. Shunday ekan qonun yaratishda uzoqni ko'zlab va ma'suliyat bilan yondashish zarur.

¹⁵ L.Bonald "Siyosat maydoni" Toshkent 2016 B-169

¹⁶ I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" Toshkent "O'zbekiston" 2013-yil, B-98

¹⁷ Odil Qoriyev X.X. "O'zbekiston Respublikasining qonunchilik tizimi" Toshkent-TDYUI.2008

Bu qonun loyihasini ommaga oshkor etish va amal qilinishini ta'minlashning eng muhim shartlaridan biri bu-ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilinishi va oshkor etilishi darkor. Bu xususida ham Konstitutsiyamizning 84- moddasida: "Qabul qilingan qonunlarning va boshqa normativ hujjatlarning matbuotda e'lon qilinishi va ular qo'llanishining muhim shartidir". Bu prinsip 1989-yil 15-yanvardagi Vena uchrashuvidagi hujjatda belgilangan: "Demokratik tamoyillarni qo'llab-quvvatlovchi davlatlar qatnashchilari "Shaxslarning o'z huquq va burchlarini bilishga hamda ularga muvofiq harakat qilishga bo'lgan huquqni samarali ta'minlash maqsadida inson huquqlari va asosiy erkinliklariga oid qonunlar, ma'muriy qoida va tartibotlarni nashr etib barchaga yetkazish majburiyatini oladi" – deya Vena Kongressidagi uchrashuvda qabul qilingan hujjat loyihasida keltirib o'tilgan. Shuning uchun ham huquq ijodkorligi-jamiyat va davlatning huquqiy ehtiyojlarini aniqlash va baholash, vakolatli subyektlarning huquqiy hujjatlarini belgilangan tartibda shakllantirishi va qabul qilishini qamrab oluvchi jarayondir. Huquq ijodkorligini yaratishda avvalo, davlatda yetarlicha yuridik ma'lumotga ega bilim ko'lami keng mutaxassislar bo'lishi darkor. Buning uchun esa xalqning huquqiy ongini shakllantirish va davlat huquqiy ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchi talaba yoshlarga yuqori darajadagi bilim berilishi va kasbiy salohiyatini oshirish darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" Toshkent. O'zbekiston 2013-yil.
2. Odilqoriyev X.X. "O'zbekiston Respublikasining qonunchilik tizimi" Toshkent-TDYUI.2008
3. L.Bonald „, Siyosat maydoni” 2013 yil B-169
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T; Adolat. 2019.
5. "O'zbekiston Respublikasi Referendum" to'g'risidagi qonuni.
- 7.Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li. "Maktab o'quvchilarining huquqiy tafakkurini shakllantirish huquqiy madaniyatni yuksaltirishning yetakchi bo'g'ini sifatida". Ta'lim fidoyilari 13 (2022): 225-228.
8. Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li. ORGANIZATION OF EXPERIMENTAL WORK AND ANALYSIS OF RESULTS ON THE IMPROVEMENT OF TECHNOLOGIES FOR IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF LEGAL EDUCATION AND TRAINING OF SCHOOLCHILDREN //Frontline Social Sciences and History Journal. – 2023. – T. 3. – №. 04. – C. 54-61.